



FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste'dodlarni kashfetamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025–2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

BIOLOGIYA (9-SINF) FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

Ajratilgan vaqt: 90 daqiqa
Savollar soni: 30 ta
Maksimal ball: 50 ball

Ushbu savollar kitobi 8 sahifadan iborat

Fan olimpiadalari markazi
rasmiy telegram sahifasi.
@Fan_olimpiadalari_M

Olimpiada topshiriqlari
yechimlari ushbu telegram
kanalda e'lon qilib boriladi.




1. [0,9 ball] Poya va ildizning po'stloq (floema) va yog'ochligi (ksilema) orasida quyidagilarning qaysi biri joylashgan?

- A) apikal (uchki) meristema
- B) periderma to'qimasi
- C) parenxima (jang'aruvchi) to'qima
- D) yon (lateral) meristema

2. [0,9 ball] Hasharotxo'r o'simliklarning barglarini harakati qaysi hodisaga misol bo'ladi?

- A) taksis
- B) tropizm
- C) nastiya
- D) periodizm

3. [0,9 ball] Quyidagi chizmada ekotizimdagi moddani va energiyani aylantirish jarayoniga jalb etilgan ayrim jonli guruhlar o'rtasidagi bog'liqlik ifodalangan.



Bunga ko'ra, quyidagi javoblardan qaysi bir noto'g'ri?

- A) 5-ATF
- B) 2-O₂
- C) 4-CO₂
- D) 1-glukoza

4. [0,9 ball] O'pkaning tiriklik sig'imi qaysi asbob yordamida o'lchanadi?

- A) Tanometr
- B) Sfigmomonometr
- C) Spirometr

D) Teplavizor

5. [0,9 ball] Odam ichagidagi bakteriyalar ishtirokida sintezlanadigan vitaminni aniqlang.

- A) B₁
- B) D
- C) C
- D) B₁₂

6. [0,9 ball] O'simliklarni bakteriyalarga qarshi ishlab chiqaradigan moddasi nima deb ataladi?

- A) smola
- B) fitonsid
- C) balzam
- D) kauchuk

7. [0,9 ball] Vena qon tomirlariga tegishli belgilarni aniqlang. 1) o'rta qavati yupqa, silliq muskul va elastik tolalardan iborat; 2) qonni yurak tomonga olib boradi; 3) CO₂ ga to'yingan qonni o'pkaga olib boradi; 4) CO₂ ga to'yingan qonni o'pkalardan olib ketadi; 5) qonni o'pkaga olib boradi.

- A) 1, 4
- B) 3, 5
- C) 1, 2
- D) 4, 5

8. [0,9 ball] Sog'lom odamning epiteliy to'qimasi haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang?

- A) alveolalar devorini hosil qiladi
- B) vena devorining o'rta qavatini hosil qiladi
- C) arteriya devorining sirtini qoplab turadi
- D) suyakusti pardani hosil qiladi

9. [0,9 ball] O'simliklarda ildiz tukchasi ildizning qaysi zonasida (a) va qaysi hujayralar hisobiga (b) hosil bo'ladi?

- A) a-bo'linuvchi; b-meristema
- B) a-so'ruvchi; b-meristema

C) a-so'ruvchi; b-qoplovchi

D) a-bo'linuvchi; b-qoplovchi

10. [0,9 ball] Ca va P almashinuvida muhim bo'lgan vitamin va gormonlarni ko'rsating.

A) vitamin D, paratgormon

B) vitamin C, glyukokortikoid gormoni

C) vitamin D, tiroksin gormoni

D) vitamin B, tiroksin gormoni

11. [1,5 ball] Quyida berilgan hayvonlar qaysi sinfga mansub?

1) oq planariya; 2) exinokokk; 3) yomg'ir chuvalchangi; 4) nereida.

a) kam tukli halqali chuvalchanglar sinfi; b) ko'p tukli halqali chuvalchanglar sinfi; c) tasmasimon chuvalchanglar sinfi; d) kiprikli chuvalchanglar sinfi.


A) 1-a; 2-b; 3-b; 4-c

B) 1-b; 2-c; 3-a; 4-d

C) 1-c; 2-a; 3-b; 4-d

D) 1-d; 2-c; 3-a; 4-b

12. [1,5 ball] Quyidagi rasmda belgilangan qismlarning qaysilari a) meva etini b) endospermni hosil qiladi.



A) a-1; b-4

B) a-4; b-2

C) a-3; b-2

D) a-1; b-3

13. [1,5 ball] Siydik ajratish sistemasi organlarini eng dastlabki qismidan boshlab tartib bilan ko'rsating:

a) nefron kapsulasi; b) Genle halqasi; d) ikkilamchi kalavasimon naychalar; e) birlamchi kalavasimon naychalar; f) qovuq; g) siydik yo'li; h) buyrak jomi; i) siydik chiqarish naychasi

A) a-e-b-d-h-g-f-i

B) a-e-b-h-d-g-f-i

C) a-e-b-d-h-f-g-i

D) a-e-b-d-h-i-g-f

14. [1,5 ball] Agar qizil qon tanachalarini quyidagi eritmalarga salsak (joylashtirsak), qanday holatlar kuzatiladi?

a) qonga nisbatan tuz konsentratsiyasi yuqori bo'lgan eritma;

b) qonga nisbatan tuz konsentratsiyasi past bo'lgan eritma;

c) tuz konsentratsiyasi qon bilan bir xil eritma.

1) suv molekullari eritmadan eritrosit ichiga o'tadi;

2) suv molekullari hujayradan eritmaga o'tadi;

3) hujayra shakli o'zgarmaydi;

4) eritrositlar yorilib ketadi;

5) eritrositlar bujmayib qoladi.

A) a-2, 5; b-1, 4; c-3 B) a-1, 4; b-2, 5; c-3

C) a-1, 5; b-2, 4; c-3 D) a-2, 3; b-1, 4; c-5

15. [1,5 ball] Yapon laminariyasi qanday belgilari bilan yapon saforasi dan farq qiladi?

1) hujayra qobig'i sellulozadan iborat; 2) vegetativ organlarga ega emas; 3) xlorofillga ega; 4) sporalar orqali jinssiz ko'payadi; 5) tuban o'simlik; 6) urug' orqali jinsiy ko'payadi.

A) 2, 6

B) 3, 4

C) 1, 6

D) 2, 5

16. [1,5 ball] Rasmdagi organoidga xos tushuncha(lar)ni aniqlang.



1) faqat o'simlik uchun xos organoid; 2) barcha eukariot organizmlarda uchraydi; 3) ichki bo'shlig'i matriks deyiladi; 4) granalar mavjud; 5) bir qavat membranadan iborat; 6) ikki qavat membranadan iborat.

A) 1, 3, 5

B) 2, 3, 5

C) 1, 4, 6

D) 2, 4, 6

17. [1,5 ball] Sog'lom odam tishlari haqidagi to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.

1) sut tishlari soni doimiy tishlar sonidan ikki marta kam bo'ladi;

2) kurak va katta oziq tishlar jami soni sut tishlar soniga teng;

3) tishning milkdan chiqib turgan qismini ildiz deyiladi;

4) doimiy tishlar soni 32 ta bo'lib, yuqori va pastki jag'da 16 tadan, jag'larning o'ng va chap tomonida 8 tadan bo'ladi;

5) katta oziq tishlar koronkasi kubsimon bo'ladi.

A) 2, 3, 4

B) 2, 4, 5

C) 1, 2, 5

D) 1, 3, 5

18. [1,5 ball] Qilquyruqning somatik hujayrasidagi bir membranali (a), ikki membranali

(b), membranasiz (c) tuzilmalarini aniqlang.

1) ribosoma; 2) hujayra markazi; 3) lizosoma;

4) vakuol; 5) silliq endoplazmatik to'r;

6) mitoxondriya; 7) Golji majmuasi; 8) donador endoplazmatik to'r; 9) xloroplast

A) a-3,6; b-4,7; c-1

B) a-8; b-6; c-1

C) a-4,8; b-9; c-1

D) a-7; b-3,6; c-2,4

19. [1,5 ball] Timozin (a), paratgormon (b), tiroksin (c) gormonlarining funksiyalarini aniqlang.

1) reabsorbsiya jarayonini susaytiradi;

2) bolalarda jinsiy bezlar funksiyasini susaytiradi;

3) limfositlar hosil bo'lishini ko'paytiradi;

4) fosfor almashinuvini boshqaradi;

5) jinsiy bezlar funksiyasini kuchaytiradi;

6) yurakni gumoral boshqarishda ishtirok etadi

A) a-1; b-6; c-3

B) a-5; b-6; c-1

C) a-2; b-4; c-1

D) a-5; b-4; c-6

20. [1,5 ball] Quyida keltirilgan meva tarqatish turlariga mos keladigan o'simliklar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.

a) anemoxor b) zooxor c) gidroxor

1-zubtutum; 2-qamish; 3-qayrag'och; 4-qo'ytikan;

5-suv nilufari; 6-temirtikan.

A) a-2,3; b-4,6; c-1,5

B) a-4,6; b-2,3; c-1,5

C) a-2,3; b-1,6; c-4,5

D) a-1,3; b-4,6; c-2,5

21. [2,6 ball] Suyaklarning birikish turi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

a) choksiz harakatsiz birikish; b) yarim harakatchan birikish; c) chokli harakatsiz birikish; d) harakatchan bo'g'imlar orqali birikish.

1) ko'krak va bel umurtqalari; 2) ensa va tepa suyaklari; 3) chanoq suyaklari; 4) kaft va barmoq suyaklari; 5) yuqori jag' va yanoq suyaklari; 6) katta boldir va son suyaklari; 7) dumg'aza umurtqalari; 8) peshona va tepa suyaklari.


A) 2, 5 - a; 1, 7 - b; 8 - c; 4, 6 - d

B) 3, 7 - a; 1 - b; 2, 8 - d; 6 - c

C) 2, 8 - c; 4, 6 - d; 3, 5 - a; 1 - b

D) 1 - b; 3, 5 - c; 2, 8 - a; 4, 6 - d

22. [2,6 ball] Ushbu sxemaga mos keluvchi gulli o'simliklar soni nechtagini aniqlang.



1) olma; 2) terak; 3) makkajo'xori; 4) chakanda; 5) qovoq; 6) pista; 7) tol; 8) archa; 9) qarag'ay; 10) bodiring; 11) yong'oq

A) 3 ta

B) 4 ta

C) 5 ta

D) 6 ta

23. [2,6 ball] Spirillalarga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni ko'rsating?

1) ko'p hujayrali tuban o'simlik; 2) yadrosi to'liq

shakllanmagan; 3) tallomi shoxlanmagan suvo'ti;

4) murein moddasidan iborat hujayra qobig'iga ega;

5) oddiy usulda bo'linib ko'payadi; 6) tayoqchasimon shakldagi bakteriya hisoblanadi; 7) buralgan ko'rinishdagi bakteriyalar hisoblanadi.


A) 1, 2, 5

B) 2, 4, 5, 7

C) 3, 6

D) 4, 6, 7

24. [2,6 ball] Quyidagi oziq to'rida nechta oziq zanjiri mavjud?



A) 6

B) 7

C) 8

D) 9

25. [2,6 ball] Nok o'simligida, tuxum hujayrasini urug'lantirgan, spermiylar soni umumiy spermiylarning 1/5 qismini tashkil qiladi. Urug'lanish jarayonida spermiylarning 40 % ishtrok etsa, va markaziy hujayrasini urug'lantirgan spermiylar soni 160 tani tashkil qilsa, nokning changdonidagi birlamchi jinsiy hujayralar soni qanchaga teng?

- A) 80 ta
- B) 150 ta
- C) 60 ta
- D) 100 ta

26. [2,6 ball] Quyida berilganlardan faqat qarag'ayga (a) faqat qirqbo'g'imga (b) xos hamda ular uchun umumiy bo'lgan (c) xususiyatlarni aniqlang.

- 1) tuxum hujayrasi arxegoniya yetiladi;
- 2) arxegoniya urug'kurtakda yetiladi; 3) mexanik to'qimaga ega; 4) spermatozoidlar anteridiya hosil bo'ladi; 5) shamol yordamida changlanadi;
- 6) o'tkazuvchi sistemaga ega; 7) urug'langan tuxum hujayradan murtaq rivojlanadi; 8) urug'lanish suvda amalga oshadi; 9) urug'kurtakdan urug' hosil qiladi

- A) a - 5; b - 3, 7; c - 4
- B) a - 9; b - 8; c - 4, 7
- C) a - 2; b - 4; c - 1, 6
- D) a - 3; b - 7, 8; c - 9

27. [2,6 ball] Abituriyentning pulsi minutiga 72 tani, sistolik hajim esa, 70 ml ni tashkil qilsa, bir soatda yurakdan o'tadigan qonning hajmini aniqlang.

- A) 200 l
- B) 302,4 l
- C) 250,5 l
- D) 289,8 l

28. [2,6 ball] II qon guruhli rezus musbat (Rh^+) odam o'pka venalaridagi eritrotsitlarga xos xususiyatlarni aniqlang?

- 1) agglutininogen A va B ga ega;
- 2) CO_2 miqdori O_2 ga nisbatan past;
- 3) yadrosi bo'lmaydi;
- 4) jigar va taloqda parchalanadi;
- 5) gemoglobiniga CO_2 ko'proq biriktirilgan;
- 6) agglutinin β ga ega;
- 7) rezus omilga ega.


- A) 1, 2, 6
- B) 2, 3, 5
- C) 1, 2, 3
- D) 2, 3, 7

29. [2,6 ball] Batsidiyaga mos kelmaydigan belgilarni ajrating?

- 1) eukariotlarning geterotrof oziqlanuvchi vakili;
- 2) xlorofill donachalariga ega; 3) qoyalarga yopishgan holda o'sadi; 4) yopishqoq lishaynik hisoblanadi; 5) daraxt po'stlog'ida o'sadi; 6) yashil sarg'ish qoplam hosil qiladi; 7) bargsimon shakl hosil qiladi; 8) fotosintez qilish xususiyatiga ega.

- A) 1, 2, 5
- B) 2, 7, 8
- C) 3, 4, 7
- D) 1, 5, 7

30. [2,6 ball] Quyidagi rasm bilan bog'liq to'g'ri fikrni aniqlang.



- 1) gipermetropiyaga chalingan odam yaqindagi odamni ko'rolmasligi;
- 2) miopiyaga chalingan odam yaqindagi odamni ko'rolmasligi;
- 3) qabariq linza qo'yish ushbu holatni davolaydi;
- 4) botiq linza bilan davolanadi;
- 5) gipermetropiyaga chalingan odam yaqindagi odamni ko'rishi;

6) miopiyaga chalingan odam uzoqdagi odamni ko'rolmasligi. (Izoh: gipermetropiya yaqinni ko'rolmaslik)

- A) 1, 3
- B) 3, 5
- C) 4, 6
- D) 4, 5